

O'SMIR O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV VAZIYATLARGA MOS NUTQ USLUBLARINI TANLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI (5–9-SINFLAR MISOLIDA)

O'rinova Diyora,

NamDPI magistranti

+998996159544

diyoraorinova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining 5–9-sinf o'quvchilarida kommunikativ vaziyatlarga mos nutq uslublarni tanlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilgan. Metodika "kommunikativ vaziyat – nutq uslubi – muloqot madaniyati" uchligi asosida qurilgan bo'lib, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda bosqichma-bosqich amalga oshirilishini nazarda tutadi. Maqolada kommunikativ vaziyatlarning tipologiyasi, 5–9-sinflar kesimida uslublarni tanlash kompetensiyasini rivojlantiruvchi mashqlar tizimi, shuningdek, metodikaning amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari tavsiflangan.

Kalit so'zlar: kommunikativ vaziyat, nutq uslublari, kompetensiya, 5–9-sinflar, o'smirlar, metodika, mashqlar tizimi

DEVELOPING THE COMPETENCE OF CHOOSING SPEECH STYLES ACCORDING TO COMMUNICATIVE SITUATIONS IN GRADES 5–9 STUDENTS: A METHODOLOGICAL APPROACH

Abstract. This article develops a methodology for developing the competence of choosing speech styles according to communicative situations in 5th–9th grade students of secondary schools. The methodology is based on the triad "communicative situation – speech style – communication culture" and involves a stage-by-stage implementation taking into account the age characteristics of students. The article presents a typology of communicative situations, a system of exercises for developing the competence of choosing speech styles in grades 5–9, as well as the possibilities for implementing the methodology into practice.

Keywords: communicative situation, speech styles, competence, grades 5–9, adolescents, methodology, system of exercises

РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИИ ВЫБОРА СТИЛЕЙ РЕЧИ В СООТВЕТСТВИИ С КОММУНИКАТИВНЫМИ СИТУАЦИЯМИ У УЧАЩИХСЯ 5–9 КЛАССОВ: МЕТОДИЧЕСКИЙ АСПЕКТ

Аннотация. данной статье разработана методика развития у учащихся 5–9 классов общеобразовательных школ компетенции выбора стилей речи в соответствии с коммуникативными ситуациями. Методика построена на основе триады «коммуникативная ситуация – стиль речи – культура общения» и предполагает поэтапную реализацию с учётом возрастных особенностей учащихся. В статье представлены типология коммуникативных ситуаций, система упражнений

для развития компетенции выбора стилей речи в 5–9 классах, а также возможности внедрения методики в практику.

Ключевые слова: коммуникативная ситуация, стили речи, компетенция, 5–9 классы, подростки, методика, система упражнений

KIRISH

Zamonaviy ta'lim paradigmasi bilimlarni uzatishdan ko'ra, o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni – jumladan, turli muloqot vaziyatlarida til vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan. 5–9-sinflar – o'smirlik davri – o'quvchilarning muloqot doirasi keskin kengayadigan, ijtimoiy munosabatlardagi o'рни murakkablashadigan, nutqiy xatti-harakatlariga nisbatan talablar ortadigan muhim bosqichdir. Aynan shu davrda o'quvchilar turli kommunikativ vaziyatlarga duch keladi: darsda o'qituvchiga javob berish (rasmiy vaziyat), tengdoshlari bilan suhbat (norasmiy vaziyat), sinf yig'ilishida nutq so'zlash (yarim rasmiy vaziyat), hujjat to'ldirish (rasmiy vaziyat) va hokazo. Har bir vaziyat muayyan nutq uslubi va muloqot odobini talab qiladi. Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab o'quvchilar turli vaziyatlarda qanday uslubda gapirish yoki yozish kerakligini farqlamaydi, vaziyatga mos til vositalarini tanlashda qiyinchiliklarga duch keladi.

Maqolaning maqsadi shuki, 5–9-sinf o'quvchilarining kommunikativ vaziyatlarga mos nutq uslublarini tanlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqadi va nazariy asoslaydi. Maqolada quyidagi vazifalar belgilangan: "Kommunikativ vaziyat" tushunchasining didaktik mohiyatini ochib beradi, 5–9-sinflar uchun kommunikativ vaziyatlar tipologiyasini ishlab chiqadi, mos uslubni tanlash kompetensiyasini rivojlantiruvchi mashqlar tizimini yaratadi, metodikaning bosqichma-bosqich amalga oshirilishini asoslaydi.

METODOLOGIYA

Shu o'rinda kommunikativ vaziyat tushunchasining didaktik mohiyatiga ham to'xtalib o'tish zarur. "Kommunikativ vaziyat" tushunchasi tilshunoslik, psixolingvistika va metodikaning markaziy kategoriyalaridan biridir. Kommunikativ vaziyat – bu muloqot jarayonining yuzaga kelishi va kechishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar, muloqot ishtirokchilari, ularning munosabatlari, muloqot maqsadi

va mazmunini o'z ichiga olgan kompleks tuzilmadir. Kommunikativ vaziyatni tahlil qilish – bu muloqot ishtirokchilarining o'zaro munosabatini, muloqot shart-sharoitlarini va maqsadini anglash, shu asosda mos til vositalarini tanlash qobiliyatidir. Aynan shu qobiliyat nutq uslublarini tanlash kompetensiyasining asosini tashkil etadi. Nutq uslublari (so'zlashuv, badiiy, ilmiy, publitsistik, rasmiy-ish) har biri muayyan kommunikativ vaziyatlar uchun xosdir. Masalan: so'zlashuv uslubi norasmiy, kundalik muloqot, tengdoshlar, oila a'zolari bilan suhbat jarayonida; badiiy uslub badiiy asarlarni o'qish, tahlil qilish, tasvirlashda; ilmiy uslub darsda javob berish, ma'ruza tinglash, ilmiy matn yozishda; publitsistik uslub munozarada qatnashish, maqola yozish, omma oldida nutq so'zlashda; rasmiy-ish uslubi esa hujjat to'ldirish, ariza yozish, rasmiy murojaat qilishda faol qo'llaniladi. Shuningdek, metodikamizning asosiy g'oyasi o'quvchilarni turli kommunikativ vaziyatlarni tahlil qilishga, har bir vaziyatga mos nutq uslubini tanlashga va shu uslub doirasida til vositalaridan to'g'ri foydalanishga o'rgatishdir.

Shu o'rinda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ular duch keladigan real muloqot vaziyatlari va o'quv dasturidagi nutq uslublariga oid mavzular asosida 5–9-sinflar uchun kommunikativ vaziyatlar tipologiyasi ishlab chiqildi. Buni quyidagicha izohlash mumkin:

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Rasmiy vaziyatda qat'iy belgilangan qoidalar, rasmiy munosabatlar; darsda o'qituvchiga javob berish, maktab direktori bilan suhbat, hujjat to'ldirish kabi vaziyatlar bo'ladi. Yarim rasmiy vaziyatda rasmiy va norasmiy elementlar uyg'unlashgan bo'ladi. Bu vaziyatda sinf yig'ilishi, to'garak mashg'uloti, sinf rahbari bilan suhbat o'tkaziladi. Norasmiy vaziyatda erkin, qoidalar belgilanmagan, tengdoshlar bilan suhbat, oila a'zolari bilan muloqot, o'yin jarayoni kabi vaziyatlar sodir bo'ladi. Muloqot maqsadi jihatidan ham nutq uslublari turlicha bo'ladi. Axborot berish: ma'lumotni yetkazish, darsda javob berish, kitob mazmunini aytib berish kabi vazifalarda; ta'sir ko'rsatish: tinglovchining fikrini o'zgartirish, bahs-munozara, maqola yozish, og'zaki nutq kabilarda; so'rash/iltimos qilishda; baholash: biror narsaga munosabat bildirish, fikr bildirish, sharh yozish, taassurot almashishda;

etiket – muloqot odobi qoidalarini bajarish: salomlashish, xayrlashish, tabriklash, minnatdorchilik bildirish kabilarda foydalaniladi.

Metodikaning asosiy qismini mashqlar tizimi tashkil etadi. Mashqlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1-guruh: Kommunikativ vaziyatni tahlil qilish mashqlari – ushbu mashqlar o'quvchilarni kommunikativ vaziyat komponentlarini (kim?, qayerda?, qachon?, nima maqsadda?) aniqlashga o'rgatadi.

1-mashq. Quyidagi kommunikativ vaziyatlarni tahlil qiling: kim ishtirok etmoqda? Qayerda? Qanday maqsadda?

1. *O'quvchi darsda doskaga chiqib, misolni tushuntirmoqda.*
2. *Ikki sinfdosh tanaffusda kino haqida suhbatlashmoqda.*
3. *O'quvchi maktab direktoriga ariza yozmoqda.*
4. *Sinf yig'ilishida o'quvchi taklif bilan chiqmoqda.*

2-mashq. Kommunikativ vaziyatning qaysi komponenti yetishmayotganini aniqlang:

1. *– Salom, ishlaring qanday? – Yaxshi, rahmat. (kim? qayerda?)*
2. *Hurmatli o'qituvchi, kechirasiz, men... (qanday maqsadda?)*

3-mashq. Berilgan kommunikativ vaziyat uchun ishtirokchilar, joy va maqsadni o'zingiz to'ldiring:

Vaziyat: __ da __ bilan __ maqsadida suhbatlashmoqda.

2-guruh: Vaziyatga mos uslubni tanlash mashqlari bo'lib, ushbu mashqlar o'quvchilarni muayyan vaziyat uchun qaysi nutq uslubi mos ekanligini aniqlashga o'rgatadi.

4-mashq. Quyidagi kommunikativ vaziyatlar uchun mos nutq uslubini tanlang:

Do'stingizga tug'ilgan kuningizga taklif qiling.

Maktab direktori nomiga ariza yozing.

Darsda "Kitobning foydasi" mavzusida nutq so'zlang.

O'qigan kitobingiz haqida kundalikda yozing.

5-mashq. Quyidagi soʻz va birikmalarning qaysi uslubga xos ekanini aniqlang:
Assalomu alaykum, murojaatingiz koʻrib chiqiladi, menimcha, oʻrganilayotgan masala yuzasidan, diqqatga sazovor joylar, iltimos.

3-guruh: Bir mazmuni turli uslublarda ifodalash mashqlari boʻlib, ushbu mashqlar oʻquvchilarning uslublar orasidagi farqni chuqur anglashiga va uslubiy moslashuvchanlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

6-mashq. Quyidagi hikmatli soʻzni turli kommunikativ vaziyatlar uchun moslashtiring:

“Bilim – eng katta boylik.”

Darsda oʻqituvchiga javob berayotganda:

Doʻstingiz bilan suhbatda:

Maktab gazetasiga maqola yozayotganda:

4-guruh: Rolli oʻyinlar va vaziyatli topshiriqlar boʻlib, ushbu mashqlar oʻquvchilarni real kommunikativ vaziyatlarga imkon qadar yaqinlashtiradi va oʻrgatilgan kompetensiyani amaliyotda qoʻllash imkonini beradi.

7-mashq. (rolli oʻyin)

Kutubxonada. Siz kutubxonaga kirdingiz. Kutubxonachi bilan suhbatlashing. Maqsadingiz – kerakli kitobni topish.

Rasmiy vaziyat (kutubxonachi bilan suhbatlashing)

Norasmiy vaziyat (doʻstingiz bilan suhbatlashing)

8-mashq. (vaziyatli topshiriq). *Sinf yigʻilishida sizdan sinfdoshlaringiz oldida “Kitob oʻqishning foydasi” mavzusida nutq soʻzlash soʻraldi.*

Nutqingizni publitsistik uslubda tayyorlang.

Nutqingizda qanday til vositalaridan foydalanasiz?

Nutqni boshlash va tugatish qanday boʻlishi kerak?

5-guruh: Matn yaratish mashqlari boʻlib, ushbu mashqlar oʻquvchilarning turli kommunikativ vaziyatlar uchun mustaqil matn yaratish koʻnikmasini rivojlantiradi.

9-mashq. Quyidagi kommunikativ vaziyatlar uchun matn yozing:

1. *Doʻstingizga tugʻilgan kuningizga taklifnoma (soʻzlashuv uslubi).*

2. *Sinf rahbariga oʻquvchilar soni toʻgʻrisida maʼlumot (rasmiy-ishq uslubi).*

3. *Maktab gazetasiga "Yangi yil" mavzusida maqola (publitsistik uslub).*

4. *O'qigan kitobingiz haqida kundalik yozuvi (badiiy uslub elementlari).*

10-mashq. *Siz maktabda o'tkaziladigan "Kelajak kasblari" mavzusidagi anjumanda qatnashyapsiz. Anjumanda nutq so'zlashingiz kerak. Nutqingiz matnini yozing. Nutqingizda ilmiy va publitsistik uslub elementlaridan foydalaning.*

11-mashq. *Quyidagi hujjatlarni rasmiy-ish uslubida yozing:*

O'qituvchiga ariza

Sinfdoshingizga beriladigan tushuntirish xati

Maktab kutubxonasidan kitob olish uchun ariza

Metodikaning bosqichlari (5–9-sinflar kesimida)

Taklif etilayotgan metodika 5–9-sinflar kesimida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Har bir bosqich o'quvchilarning yosh xususiyatlari, nutqiy rivojlanish darajasi va o'quv dasturidagi mavzular ketma-ketligiga asoslangan. 1-bosqichda 5–6-sinflar vaziyatni anglash va so'zlashuv uslubini o'zlashtirish kabi vazifalarni bajarishadi. Bundan ko'zlangan maqsad – o'quvchilarni kommunikativ vaziyat komponentlarini anglashga, kundalik muloqotda so'zlashuv uslubidan foydalanishga o'rgatish. 2-bosqichda 7–8-sinflar ilmiy va publitsistik uslublarni vaziyatga mos qo'llashadi. Bundan ko'zlangan maqsad – o'quvchilarni ilmiy va publitsistik uslublarni turli kommunikativ vaziyatlarda qo'llashga o'rgatish. 3-bosqichd 9-sinf rasmiy-ish uslubini va uslublarni vaziyatga mos tanlash kompetensiyasini bajarishadi. Bundan ko'zlangan maqsad – o'quvchilarda barcha nutq uslublarini turli kommunikativ vaziyatlarga mos tanlash kompetensiyasini shakllantirish.

Metodikaning amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari

Taklif etilayotgan metodika umumta'lim maktablarining 5–9-sinflarida ona tili va adabiyot darslarida amalga oshirilishi mumkin. Metodikaning amaliy ahamiyati quyidagilardan iborat:

1. Kommunikativ yondashuv: metodika real hayotdagi kommunikativ vaziyatlarni modellashtirishga asoslangan bo'lib, o'quvchilarni maktabda olgan bilimlarini hayotda qo'llashga tayyorlaydi.

2. Bosqichma-bosqichlik metodika 5–6, 7–8 va 9-sinflar uchun alohida bosqichlarni nazarda tutadi. Har bir bosqich o'quvchilarning yosh xususiyatlari va nutqiy rivojlanish darajasiga mos keladi.

3. Mashqlar tizimining xilma-xilligi: metodika 5 guruhga bo'lingan 11 turdagi mashqlarni o'z ichiga oladi. Mashqlar oddiy tahlildan tortib murakkab matn yaratishgacha bo'lgan darajalarni qamrab oladi.

4. O'quv dasturi bilan integratsiya: metodika mazmuni 5–9-sinflar ona tili va adabiyot dasturlaridagi "Nutq uslublari", "Matn tuzilishi", "Nutqiy faoliyat turlari", "Muloqot odobi" kabi mavzular bilan uzviy bog'langan.

5. Baholash mezonlari: metodika asosida o'quvchilarning kompetensiyasini baholash mezonlari ishlab chiqilishi mumkin (uslubni to'g'ri tanlash, vaziyatga mos til vositalaridan foydalanish, muloqot etiketiga rioya qilish).

XULOSA

"Kommunikativ vaziyat" tushunchasi metodikaning asosiy kategoriyasi bo'lib, u muloqot ishtirokchilari, joyi, vaqti, maqsadi va vositalarini o'z ichiga oladi. Kommunikativ vaziyatni tahlil qilish nutq uslublari tanlash kompetensiyasining asosini tashkil etadi. Metodika 5–9-sinflar uchun kommunikativ vaziyatlar tipologiyasi rasmiylik darajasi (rasmiy, yarim rasmiy, norasmiy), muloqot maqsadi (axborot berish, ta'sir ko'rsatish, so'rash, baholash, etiket) va yosh bosqichlari (5–6, 7–8, 9-sinflar) bo'yicha qo'llash uchun yaratildi. Metodika 5–6, 7–8 va 9-sinflar uchun uch bosqichda amalga oshiriladi. Har bir bosqichda o'rgatiladigan nutq uslublari, qo'llaniladigan mashqlar turlari va kutiladigan natijalar aniq belgilangan. Taklif etilayotgan metodika umumta'lim maktablarining 5–9-sinflarida ona tili va adabiyot darslarida qo'llanilishi mumkin bo'lib, o'quvchilarning kommunikativ vaziyatlarga mos nutq uslublari tanlash kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gulomov A. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1985. – 240 b.
2. Hamrayeva M. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. – 180 b.
3. Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – Москва: Наука, 1963. – 255 с.
4. Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – Ленинград: Наука, 1974. – 428 с.
5. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Педагогика, 1982. – 362 с.

6. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – Москва: Логос, 2004. – 384 с.
7. Ходжайев В. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2004. – 328 b.
8. Quronov M. O'zbek tilida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalalari // Til va adabiyot ta'limi. – 2001. – №5. – B. 23–27.
9. Kungurov R. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1972. – 192 b.
10. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1984. – 344 b.
11. Karimova V. Muloqot psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008. – 180 b.
12. Yusupova Sh. Nutqiy faoliyat va uning turlari // Filologiya masalalari. – 2015. – №2. – B. 45–49.
13. Qodirova M. O'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalari // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2020. – №3. – B. 112–117.
14. To'xliyev B. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Yangiyo'l poligrafservis, 2011. – 248 b.
15. Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 432 b.